



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI
BUYRUQ

2023-yil "17" oktabr

Toshkent sh.

158 -sonli

**Vazirlikda davlat xaridlarini
tashkil etish va o'tkazishni
tartibga solish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunining 20-moddasiga Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish, shuningdek, kelgusida Suv xo'jaligi vazirligi tomonidan Davlat xaridlari talablariga qat'iy rioya qilinishini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni *rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.*

2. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligida Davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Davlat xaridlarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun talablaridan kelib chiqib amalga oshirsinlar.

4. Mazkur Xarid komissiyasiga vazirlik tomonidan amalga oshiriladigan Davlat xaridlari bo'yicha quyidagi vazifalar yuklatilsin:

xarid qilish hujjatlarini kelishadi;

takliflar qabul qilish muddatlarini belgilaydi;

takliflarni ochish tartib-taomillarini belgilaydi;

takliflarni baholash mezonlarini va usullarini belgilaydi;

zarur bo'lganda taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta'minlash shaklini belgilaydi;

xarid qilish tartib-taomili ishtirokchilarining takliflarini ochishni amalga oshiradi;

dastlabki malaka tanlovini o'tkazadi, agar xarid qilish hujjatlari shartlarida bu nazarda tutilgan bo'lsa;

zarur bo'lganda dastlabki malaka tanlovi natijalarini hisobga olgan holda qaror qabul qiladi;

zarur bo'lganda baholash guruhini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qiladi;

xarid qilish tartib-taomillarini ushbu Qonunga muvofiq amalga oshiradi;

xarid qilish tartib-taomillarining raqobatlashuv turlari g'olibini va zarur bo'lganda zaxiradagi g'olibni belgilaydi yoki savdoni amalga oshmagan deb topadi.

5. Belgilansinki, xarid komissiyasi belgilangan tartibda xarid qilish tartib taomillarini tashkil etish va o'tkazish uchun javobgar hisoblanadi.

6. Moliya-iqtisod va xo'jalik faoliyati boshqarmasi boshlig'i S.Alimardanovga: ishlab chiqarish zaruriyatiga ko'ra hamda boshqarmalar va mustaqil bo'limlar tomonidan yozilgan talabnomalar asosida vazirlik markaziy apparatini saqlash bilan bog'liq tadbirlar va kommunal xizmatlar uchun zarur bo'ladigan tovarlar (ishlar va xizmatlar)ni xaridini amalga oshirishini;

xarid komissiyasining xulosasiga muvofiq yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalarni belgilangan tartibda ijro qilinishini ta'minlasin.

7. Axborot xizmati boshlig'i (Sh. Suyunov) ta'minotchi korxonalar bilan tuzilgan shartnomalarni maxsus axborot portaliga joylashtirib borilishini ta'minlasin.

8. Mazkur buyruqni ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari A. Nazarov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



Sh.Xamrayev

O'zbekiston Respublikasi
Suv xo'jaligi vazirligining
2023-yil 17 oktyabrdagi 158-sonli
buyrug'iga 1-ilova

**O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining
Davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha
KOMISSIYA TARKIBI**

T/r	F.I.Sh	Lavozimi
1	A. Nazarov	Vazirning birinchi o'rinbosari- Komissiya raisi
	<i>Ishchi gurux a'zolari</i>	
2	A. Bahodirov	Ichki audit, komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi boshlig'i
3	S. Alimardanov	Moliya-iqtisod va xo'jalik faoliyati boshqarmasi boshlig'i
4	R. Kamilov	Suv resurslari va suvdan foydalanish bo'limi boshlig'i
6	R. Sharopov	Yuridik bo'lim boshlig'i
7	B. Xushvaqtov	Moliya-iqtisod va xo'jalik faoliyati boshqarmasi bosh mutaxassisi- Komissiya kotibi

Izoh. Komissiya tarkibi a'zosi boshqa ishga o'tgan taqdirda, ushbu lavozimga yangi tayinlangan shaxs kiritiladi.